Tarbiyasi og'ir o'smirlar orasida jismoniy faoliyat darajasi bilan akademik yutuqlar orasidagi bog'liqlikni takomillashtirish .....	508
<b>Isoqov Nuriddin Halim o'g'li</b>	
Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish omillari.....	511
<b>Jamilova Dilsuza To'lqin qizi</b>	
Talaba qizlarning jismoniy faolligini oshirish yo'llari .....	515
<b>Jumanova Iroda Shokirjon qizi</b>	
Online marketingda emotsional manipulatsiya usullarining ta'siri .....	518
<b>Nurmatov Nurhayot, Kimsanboyeva Komila Shermuxammadqizi</b>	
O'yin faoliyati va integrativ mashg'ulotlar asosida tarbiyani tashkil etish metodikasi .....	522
<b>Mamatova Farida Iminjanovna</b>	
Oliy ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning mazmuni va uning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati .....	527
<b>Mirsaidova Muborak</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini modellashtirishning didaktik imkoniyatlari va samaradorligi .....	532
<b>Muxtarova Lobar Abdimannabovna, Shoymurodova Roziya Yusuf qizi</b>	
Amfibialarning teri orqali nafas olishi: morfofiziologik asoslari va evolyutsion ahamiyati .....	536
<b>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyeva, Normurodova Farishta Begmurod qizi, Xolmurodova Dilrabo Panji qizi, Qo'ldoshova Ruxshona Navro'z qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarda bilish jarayonining rivojlanishi ...	541
<b>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</b>	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilishning ilmiy-amaliy ahamiyati.....	546
<b>Nosirov Bunyodjon G'offorali o'g'li</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi.....	550
<b>Qambarova Naziraxon Barxonovna</b>	



An'anaviy oila sharoitida kelinlarda noadaptiv psixologik himoya mexanizmlarini kamaytirish bo'yicha psixokorreksion yondashuv .....	554
<b>Qobilova Nasiba Ismatjon qizi</b>	
Ona tili ta'limida kreativ yondashuv asosida o'quv jarayonini modellashtirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	557
<b>Qulmuminov O'rolboy Safar o'g'li, Jumayeva Hulkar Panji qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish dinamikasi .....	562
<b>Ravshanova Gulnoza Burxonovna, Turdiboyeva Umida Ravshan qizi, Norjigitova Rohila Abduvoid qizi</b>	
Ingliz, o'zbek va rus tillari foydalanuvchilari uchun lug'atlar yaratishning lingvistik va amaliy asoslari .....	565
<b>Raxmonova Sardora Muminjonovna</b>	
Jismoniy tarbiya darslarini yangicha pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari .....	569
<b>Ro'zmetov Rasul Tangirberganovich</b>	
Sutemizuvchilarning kelib chiqishi va xilma-xilligi .....	573
<b>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Sattorova Sanobar Boboqul qizi, Salimova Shahrizoda Ikromjon qizi</b>	
Raqamli muhitda voyaga etayotgan o'spirinlarda empatiya va ijtimoiy-emotsional rivojlanishning neyropedagogik xususiyatlari .....	578
<b>Shamsiddinov G'iyosjon Husniddin o'g'li</b>	
Bo'lajak muhandislarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda dasturlashtirilgan ta'lim vositalarining o'rni .....	583
<b>Sharipova Nodira Ilxom qizi</b>	
Digital Educational Technologies in Improving the Quality of Teaching: Methods and Practical Implementation .....	588
<b>Tashpulatova Nafisa Bakhtiyarovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ishonchni rivojlantirishda inklyuziv usullardan foydalanish .....	591
<b>To'laboyeva Irodaxon Maxammadali qizi</b>	
SRDM modeli orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida STEAM kompetensiyalari va Computational Thinking ko'nikmalarini shakllantirish .....	595
<b>Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi</b>	
Umumta'lim maktablarida fan to'garaklari faoliyatini tashkil etishning pedagogik shartlari .....	600
<b>Toshtemirova Dilnoza Abdug'ani qizi</b>	
Development of an Integrated Learning Module Based on Digital Technologies in the Educational Process .....	604
<b>Umirov Ilkhom Iskandar ugli</b>	
Muskul-skelet tizimi nuqsonli o'quvchilarning nozologik guruhlariga differensial yondashuv asosida adaptiv sportga yo'naltirish .....	608
<b>Uraimov Sanjar Ruzimatovich, Ubaydullayeva Dilnoza Muhammad qizi</b>	
Boshlang'ich ta'limda alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni o'qitishning bugungi holati va muammolari tahlili .....	612
<b>Uroqova Yorqin qizi</b>	
Inklyuziv ta'lim muhiti asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiya darslarida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	615
<b>Xamidova Zarina Iskandar qizi</b>	
Qushlar migratsiyasi va uning ekologik sabablari .....	619
<b>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Raximova Dilfuza Ilyos qizi, Saburova Sarvinoz Erkabay qizi</b>	
Imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etishning nazariy va amaliy asoslari .....	623
<b>Xasanova Nilufar Raxmatovna</b>	
Raqamli avlod tarbiyasida milliy qadriyatlar va ota-onalarning virtual-pedagogik madaniyati uyg'unligi .....	628
<b>Xaydarova Xilola Raximberdiyevna</b>	
Разработка алгоритмов для визуализации и анализа решения задач линейного программирования .....	631
<b>Буронова Муниса Баходировна, Хакимов Дониёр Бахтиёр Угли</b>	
Ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv tushunchasi va iqtisodiy mazmuni .....	637
<b>Mannanova Maftuna Fazliddin qizi</b>	
Koreya ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari va uning pedagogik mohiyati .....	641
<b>Adamatov Anvar Ablaqulovich</b>	
Bo'lajak pedagoglarning raqamli didaktik kompetensiyasini rivojlantirish: muammo va yechimlar .....	645
<b>Uskanov Kaxramon Xalikulovich</b>	
Matematika fanini o'qitishda onlayn platformalardan foydalanish .....	648
<b>Mirzayeva Shahlo, Yorqulova Mashhura, Boboqulova Durdona</b>	

# TA'LIM BOSHQARUVIDA RAHBARLARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Islamova Dilfuza Dilshodovna

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahurat milliy instituti  
mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim boshqaruvida rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, boshqaruv samaradorligini oshirish omillari hamda innovatsion boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim tizimida strategik boshqaruv, liderlik, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida rahbarlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Maqolada xorijiy tajribalar asosida samarali boshqaruvning nazariy va amaliy jihatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim menejmenti, rahbar kompetensiyasi, strategik boshqaruv, liderlik, innovatsion yondashuv, kasbiy rivojlanish, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt.

**Abstract:** This article analyzes modern approaches to developing the professional competence of leaders in educational management, factors for improving management efficiency, and the importance of innovative management mechanisms. The study also highlights issues related to strategic management, leadership, digital technologies, and artificial intelligence in enhancing the professional potential of educational leaders. The theoretical and practical aspects of effective management are revealed based on international experience.

**Key words:** educational management, leadership competence, strategic management, leadership, innovative approach, professional development, digital technologies, artificial intelligence.

**Аннотация:** В данной статье анализируются современные подходы к развитию профессиональной компетентности руководителей в управлении образованием, факторы повышения эффективности управления, а также значение инновационных механизмов управления. Освещаются вопросы развития профессионального потенциала руководителей на основе стратегического управления, лидерства, цифровых технологий и искусственного интеллекта. На основе зарубежного опыта раскрываются теоретические и практические аспекты эффективного управления.

**Ключевые слова:** образовательный менеджмент, компетентность руководителя, стратегическое управление, лидерство, инновационный подход, профессиональное развитие, цифровые технологии, искусственный интеллект.

## KIRISH

Bugungi globallashtirish jarayonlari va jamiyatning barcha sohalarida kechayotgan raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimini samarali boshqarish eng dolzarb strategik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim tizimi nafaqat bilim berish jarayoni, balki inson kapitalini rivojlantirish, jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish va iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi asosiy ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. Shu bois ta'lim sifati va uning natijadorligi bevosita ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasi, boshqaruv madaniyati hamda innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llay olish darajasiga bog'liqdir.

Zamonaviy sharoitda ta'lim muassasasi rahbari faqat ma'muriy boshqaruvchi emas, balki strategik fikrlovchi lider, innovator va o'zgarishlarni boshqaruvchi subyekt sifatida maydonga chiqmoqda. U ta'lim jarayonida sifatni ta'minlash, pedagogik jamoani rivojlantirish, raqobatbardosh ta'lim muhitini yaratish hamda manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi murakkab vazifalarni amalga oshiradi. Bu esa rahbarlardan yuqori darajadagi strategik fikrlash, analitik yondashuv, kommunikativ mahorat va raqamli savodxonlikni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida xalqaro standartlarga mos boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ta'lim sifati oshirish va rahbar kadrlar salohiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat



dasturlari va islohotlar aynan boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, ta'lim menejmenti sohasida samarali boshqaruv tamoyillarini joriy etish, rahbarlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini shakllantirish hamda innovatsion boshqaruv modellarini amaliyotga tatbiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim ilmiy-amaliy muammo sifatida qaraladi. Chunki samarali boshqaruv tizimi ta'lim sifatini oshirish bilan birga, kadrlar tayyorlash tizimining raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim boshqaruvi va rahbar kompetensiyasi masalalari zamonaviy pedagogika va menejment fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu soha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Xususan, P. Druker, M. Fullan, A. Shleyxer kabi olimlar samarali boshqaruv, strategik rivojlanish va liderlikning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

Maykl Fullan ta'lim tizimida rahbarning roli faqat ma'muriy boshqaruv bilan cheklanib qolmasligi, balki u o'zgarishlarni amalga oshiruvchi innovator va pedagogik jarayonning faol tashabbuskori bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Andreas Shleyxer esa ta'lim sifati bevosita rahbarlarning professional kompetensiyasi, tahliliy fikrlashi va pedagogik liderlik salohiyatiga bog'liqligini ilmiy asosda ko'rsatib beradi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham ushbu yo'nalishda salmoqli tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, N. Muslimovning ilmiy ishlarida pedagogning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini baholash mexanizmlari chuqur yoritilgan.

A. Abduqodirov tadqiqotlarida esa ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, raqamli ta'lim muhitini shakllantirish va elektron o'quv resurslarini rivojlantirish masalalari asoslab berilgan.

S. Nishonova va U. Yo'ldoshev kabi olimlarning ishlari pedagogika, didaktika va pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-metodik asoslariga bag'ishlangan bo'lib, ularda o'qituvchi va rahbarlarning kasbiy mahoratini oshirish, ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarurligi ta'kidlanadi.

B. Xodjayeov ilmiy izlanishlarida esa ta'lim nazariyasi, pedagogik tizimni boshqarish hamda zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan.

Umuman olganda, mahalliy tadqiqotlarda rahbarlarning kommunikativ madaniyati, innovatsion faoliyati, raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari hamda pedagogik jamoani boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi alohida e'tirof etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tahliliy, qiyosiy-taqqoslash, statistik va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi, ilmiy manbalar hamda ta'lim boshqaruvi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi. Tadqiqot davomida ta'lim rahbarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning samarali mexanizmlari tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim boshqaruvida rahbarlarning kasbiy kompetensiyasi zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko'ra kompleks va tizimli xarakterga ega bo'lib, u bir-biri bilan uzviy bog'langan bir necha asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi. Ushbu kompetensiyalar ta'lim muassasasining samarali faoliyatini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish hamda innovatsion rivojlanishni jadallashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Strategik boshqaruv kompetensiyasi** - rahbar ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish, ichki va tashqi muhitni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Strategik boshqaruv kompetensiyasi ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish va pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtirishda asosiy omil hisoblanadi.

**Liderlik kompetensiyasi** - zamonaviy ta'lim rahbari jamoani yagona maqsad sari yo'naltira oladigan, pedagogik xodimlarni motivatsiyalovchi hamda innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlovchi lider sifatida faoliyat yuritishi zarur. Liderlik kompetensiyasi orqali rahbar jamoada ishonchli psixologik muhitni shakllantiradi, xodimlarning kasbiy faolligini oshiradi hamda o'zgarishlarga nisbatan moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

**Raqamli kompetensiya** - raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim rahbarlarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi dolzarb talabga aylanmoqda. Elektron boshqaruv tizimlari, raqamli monitoring platformalari, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari hamda sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv texnologiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

**Kommunikativ kompetensiya** - rahbarning pedagoglar, o'quvchilar, ota-onalar va keng jamoatchilik bilan samarali muloqot o'rnatishi boshqaruv jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim o'rin tutadi. Kommunikativ kompetensiya nizolarni konstruktiv hal etish, hamkorlik aloqalarini rivojlantirish hamda tashkilot ichida ochiq va ishonchli muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Xususan, Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya ta'lim tizimlarida rahbarlar uchun doimiy malaka oshirish kurslari, mentorlik dasturlari hamda amaliyotga yo'naltirilgan treninglar tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

Janubiy Koreya tajribasida ta'lim rahbarlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi innovatsion yondashuvlarga asoslangan bo'lib, unda raqamli boshqaruv, jamoaviy liderlik hamda strategik rejalashtirish kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Singapur ta'lim tizimida esa rahbarlarning kasbiy rivojlanishi individual rivojlanish dasturlari, mentorlik va doimiy baholash mexanizmlari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, malaka oshirish kurslari mazmunini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va raqamli boshqaruv tizimlarini kengaytirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda.

Biroq amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud:

- rahbarlarning innovatsion boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalari yetarli emasligi;
- strategik rejalashtirish kompetensiyasining sust rivojlanganligi;
- raqamli boshqaruv bo'yicha amaliy tajribaning cheklanganligi;
- xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy etishdagi muammolar.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar tavsiya etiladi:

1. Rahbarlar uchun zamonaviy boshqaruv va liderlik bo'yicha maxsus trening dasturlarini tashkil etish.
2. Ta'lim boshqaruvida sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.
3. Xalqaro tajriba asosida mentorlik va kouching tizimini rivojlantirish.
4. Rahbarlarning kasbiy faoliyatini baholashning zamonaviy mezonlarini ishlab chiqish.
5. Ta'lim muassasalari rahbarlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish platformalarini yaratish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishning ustuvor omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim muassasasini samarali boshqarish rahbarning strategik fikrlashi, liderlik qobiliyati, kommunikativ madaniyati hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi bilan bevosita bog'liqdir. Ayniqsa, globallashtirish, raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim boshqaruviga nisbatan mutlaqo yangicha yondashuvlarni shakllantirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, strategik boshqaruv, liderlik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalar rahbar faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta'lim muassasalarida boshqaruv sifati oshadi, pedagogik jamoaning kasbiy faolligi kuchayadi, ta'lim jarayonining samaradorligi ta'minlanadi hamda innovatsion muhit shakllanadi. Shu bilan birga, rahbarlarning zamonaviy boshqaruv texnologiyalaridan samarali foydalanishi ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari rahbarlaridan nafaqat ma'muriy boshqaruvni amalga oshirish, balki pedagogik jarayonni strategik rivojlantirish, inson resurslarini boshqarish, jamoada sog'lom psixologik muhit yaratish va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash kabi murakkab vazifalarni bajarish talab etilmoqda. Shu jihatdan qaraganda, rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim tizimining barqaror taraqqiyoti va sifat ko'rsatkichlarini oshirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi.



Shuningdek, Janubiy Koreya, Singapur va Finlyandiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi rahbarlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, mentorlik tizimini yo'lga qo'yish hamda innovatsion boshqaruv texnologiyalarini amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatmoqda. Mazkur davlatlar tajribasida rahbarlarning individual rivojlanish dasturlari, amaliy treninglar, raqamli boshqaruv va samaradorlik monitoringi tizimlari muhim o'rin egallaydi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Xususan, malaka oshirish kurslari mazmunini zamonaviylashtirish, xalqaro tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, raqamli boshqaruv platformalarini keng joriy etish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Bundan tashqari, ta'lim rahbarlarining faoliyatini baholash mezonlarini zamonaviy talablar asosida ishlab chiqish, ularning innovatsion va analitik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, uzluksiz kasbiy rivojlanishning individual trayektoriyalarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa rahbarlarning kasbiy salohiyatini oshirish bilan birga, ta'lim muassasalarining samarali faoliyat yuritishini ham ta'minlaydi.

Kelgusida ta'lim boshqaruvida rahbarlarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, zamonaviy kompetensiya modellari va baholash mezonlarini ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim boshqaruvida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini chuqur integratsiya qilish ta'lim tizimining raqobatbardoshligi hamda barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. - Toshkent: 2020.
2. Fullan M. The Principal: Three Keys to Maximizing Impact. - San Francisco: Jossey-Bass, 2014.
3. Drucker P. Management Challenges for the 21st Century. - New York: Harper Business, 2001.
4. Schleicher A. World Class: How to Build a 21st-Century School System. - Paris: OECD Publishing, 2018.
5. Sharifxo'jayev M., Abdullaev Yo.A. Menejment. O'quv qo'llanmaT.: O'qituvchi. 2001.
6. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - T.: "Voriz", 2006.
7. Xolbekov A. Boshqaruv sotsiologiyasi. - Toshkent, 2007.
8. Muslimov N.A va boshqalar (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. O'quv metodik qo'llanma. - T.: "Sano-standart", - 120 b.
9. Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Fan, 2021.
10. www.ziyonet.uz - Ziyonet milliy ta'lim tarmog'i.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.